

O'ZBEK HIKOYACHILIGI VA UNING TARAQQIYOT YO'LII

Hasanova Dilbar

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.016>

Annotatsiya.: Ushbu maqolada o'zbek hikoyachiligi, uning ma'lum bir davrlariga xos xususiyatlari, mustaqillikdan keyingi davr xususiyatlarini yoritishda yozuvchi Ahmad A'zamning "Oyning gardishi" hikoyasi tahliliga tortilgan.

Abstract: In this article the uzbek storyteller, whose specific features characteristic of periods, when highlighting the features of the post independent period writer Ahmad A'zam's story "The flange of the moon" has been subject to analysis.

Аннотация: В этой статье, освещая особенности узбекского сказительства, его специфику в определены периоды, период после обретения независимости, анализируется рассказ писателя Ахмад Азама "Фланец луны".

Kalit so'zlar: hikoya, hikoyachilik, realizm, ramz, timsol, syujet.

Keywords: story, storytelling, realism, symbol, emblem, plot.

Ключевые слова: история, рассказывание историй, реализм, символ, эмблема, сюжет.

O'zbek hikoyachiligi uzoq va boy tarixga ega. Hikoya epik turning eng kichik shakllaridan biridir. Hikoyaning shakli, garchand kichik bo'lsa-da, u o'z zamirida olam-olam mazmunni sig'dirishga, ifodalashga qodir. Shu jihatdan, shakily muxtasarlik, qisqalik, mazmunan lo'nda va yaxlitlik hikoyaning an'anaviy zohiriyl belgilaridandir. Jahon adabiyoti durdonalarining ta'siridan unumli o'rganish va foydalanish davomida hikoyalalar shakli va mazmunida muttasil o'zgarishlar o'z ifodasini topmoqda. O'zbek nasrinining taraqqiyotini kuzatib borayotgan har bir o'quvchi hikoyachiligidan tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligini va bu kichik janrda ham katta epic janrlardagidek salmoqli hayotiy muammolar o'zechimini topayotganligini kuzatishi mumkin. Yuqorida hikoyachilik tarixini uzoq tarixga ega ekanligini ta'kidladik, xususan XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan milliy hikoyachilik janrining shakllanishi, shaksiz milliy xarakterlarning haqqoniy yaratilganligi, xalqimiz turmushining yorqin va betakror bo'yoqlariga, manzaralariga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, Cho'lponning "Qor qo'yunda lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" kabi hikoyalarda maishiy turmush manzaralarini tasvirlash orqali inson psixologiyasi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy voqelik o'rganiladi. Ushbu hikoyalardagi har bir detal va kichik chizgilar qahramon shaxsiyatidagi u yoki bu qirralarni yoritishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu davr hikoyachiligi axloq masalasini yoritishi bilan xarakterlanadi. Qisqacha qilib aytganda, bu davr hikoyachiligi o'quvchi ko'z o'ngida voqelikni jonli aks ettirishga, qahramonni tipiklashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

20-30-yillar hikoyachiligi esa o'zinining satirik xarakteri bilan izohlanadi. Bu davrdagi satirik hikoyachilik o'z mazmun-mundarijasida ijtimoiy mazmunning xarakteri, eskilik sarqitlaridan batamom qutulib ulgurmay, o'zini yangilik tarafdoi qilib ko'rsatadigan munofiqlar, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yuvchi xudbinlar obrazini tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Bu davrning eng sermahsul ijodkorlari sifatida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Shokir Sulaymon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, G'ayratiy kabi ijodkorlar sermahsul ijod qilishgan. Bu davr hikoyachiligi keyingi davr hikoyachiligi uchun muhim poydevor vazifasini o'tadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, hikoya epik turning eng kichik janrlaridan biri sifatida qaraladi. U qissa va romandan xarakter, hayotiy voqealar ko'lami va hajm nuqtayi nazaridan farqlanadi. Shu jihatdan, "Adabiy turlar va janrlar" kitobida hikoyaga xos umumiyl xususiyatlar quyidagicha belgilanadi: "Hikoya birgina voqeasosiga quriluvchi, xarakter birgina epizod orqali aks etuvchi, xarakterlar tayyor holda beriluvchi, xarakterni birgina holati ko'rsatiluvchi, personajlar soni cheklangan, xarakterni hikoyaga kirgunicha va hikoya tugaganidan keying holati noma'lum qoluvchi janr" [1] ekanligi aytib o'tilgan. Biroq zamон yangilanishi va badiiy adabiyotga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi bu xususiyatlarning ko'pini inkor etishga sabab bo'lmoqda. Bu haqida adabiyotshunos olim D.Quronov shunday deydi: "Tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqt qisqaligi bois hikoyaning hajmi kichik, syujeti sodda, personajlari kam bo'lishini taqozo etadi. Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi" [2]. Hikoyabop mavzu tanlay olish, murakkab ijtimoiy-ma'rifiy qimmatga

ega voqeani tanlay bilish ijodkor mahoratiga bog‘liq.

Mustaqillik epkinining esishi nafaqat, hikoyachilikka, balki butun o‘zbek adabiyotida novatorlikning yuzaga kelishini ta’minlovchi omillardan biriga aylandi. Adabiyotda insonni “hazrati inson”, sifatida ulug‘lash, inson ruhiyatining eng nozik qirralarini tasvirlash, uning o‘y-xayollari va orzu-intilishlarini asosiy planda tasvirlash kabi jihatlar etakchi xususiyatlarga aylandi. Sanab o‘tilgan xususiyatlar hikoyachilikda ham o‘z aksini topib kelmoqda. Mahoratli yozuvchi Ahmad A’zam hikoyalari o‘zining badiiy psixologizmi, personajlarining turli toifa vakillari ekanligi, jamiyatdag‘i illatlarni ro‘y-rost tasvirlashi jihatidan ajralib turadi. Yozuvchi o‘z qahramonlarini goh ziyoli qatlam vakillari orasidan tanlasa, goh qishloq odamlarining sodda va kamtarin qiyofasini aks ettiradi. Yozuvchining “Oyning gardishi” hikoyasi yozuvchi voqelikni ifodalash uchun bola nigohidan foydalanadi.

Asar sof realizm ruhida yozilgan. Ushbu hikoyada kattalardek fikrlovchi Ma’sudning atrofdagi turli voqealari o‘z ta’biri bilan talqin qilishi natijasida hikoya biografik xarakter kasb etadi. Asarda qishloq hayoti, sodda qishloq odamlarining qiyofasi yoritib beriladi. Hikoyaning bosh qahramoni Ma’sud. Ma’sudning narigi qishloqqa tunda yolg‘iz qilgan safari, uning o‘y-xayollari vositasida asosiy g‘oya va mazmun ochib beriladi. Hikoya davomida Ma’sudning ilmg‘a chanqoq, sho‘x, quvnoq, orzularga beriluvchan, o‘zining kichik dunyosiga ega va shu bilan bir qatorda otasiga g‘amxo‘r farzand sifatida gavdalanadi. Ma’sudning akasi Akrom ota katta o‘g‘lini shaharga ilm izlab ketib, qaytib kelmagani uchun kitoblarga o‘zgacha mehr qo‘ygan Ma’sudga ham qattiqko‘llik qiladi. Bu quyidagi misralarda ko‘rinadi: “Uxlab qolibsan kitobing surilib, chiroqqa tegay-tegay deb turibdi. Uyqusirab turtib yuborsang, omin, Ollohu Akbar, hammayoq yonib ketadi. Eng birinchi o‘zing yonasan kitobing bilan birga” yoki yana bir o‘rinda “Birov seni majburlayaptimi, dunyodagi hamma kitoblarni o‘qiysan, deb. Darsingni beshga o‘qisang bo‘ldi-da” [3]. Zotan, ota bolasiga mehribon, ammo akasi kabi uning ham olis shaharlarga ketib qolishini, qarigan chog‘ida tirkaksiz qolishni xohlasmaydi. Bir yig‘inda aytilgan otaning fikrlariga diqqat qaratamiz: “Ne-ne azoblar bilan o‘qitdim. Qanday pir yillar edi! U bo‘lsa, o‘qishni bitirib kelib, muallimligini boshlagach: “Ota dindan kechasiz, nima qilasiz Xudoga ishonib...” dedi. Uni dindorligi uchun mansabga chiqolmayotgan emish” [4]. Ota ham ilmg‘a befarq johil inson emas, aslida. Qiynalib o‘qitgan farzandining gapso‘zlaridan undan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urgan.

Asar bosh qahramoni Ma’sudning tunda amakisini kiga, qo‘shti qishloqqa, borishdagi yolg‘iz safari davomida uning tabiat, jamiyat haqidagi o‘y-fikrlari o‘z aksini topgan. Hikoyaning butun mohiyati bolaning ko‘rgan tushi ta’sirida qayta ochiladi. U kitob o‘qib, mudrab ketadi va tushida o‘zining oq qo‘yga minib, olib oy gardishining devorini axtaradi, qo‘y ham tixirlik qilib hech joyidan jilmaydi. Otasingin tanbehlari, qarindosh-u qo‘shtilar Mamat mesh va Orziqul boboning qotib-qotib kulishlari tushning ham yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvir etilganligini ko‘rsatadi.

Hikoya ramziylik asosiga qurilgan. Hikoyadagi oy, oyning qo‘tonlangan holati ya’ni gardishi, qo‘y kabi timsollar ramziylik kasb etgan. Qo‘rg‘onlangan oy-jamiyatdag‘i chegaralangan an’naviy milliy qadriyat timsoli bo‘lsa, gardish – cheklanganlik ramzi, oyning qo‘tonlanishi esa an’naviy milliy qadriyatlariga o‘ralashib qolgan o‘zbek xalqining hayotiga ramziy ishora desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Oq qo‘yga minib olib, yo‘l topa olmayotgan bola esa, o‘zbek xalqining an’aviy milliy qadriyatlari bilan to‘qnashib, o‘zi istaganidek katta yo‘lga chiqa olmayotgan inson obrazni sifatida ramziylik kasb etgan. Yuqorida Ahmad A’zam mahoratli yozuvchi ekanligini ta’kidladik, “Oyning gardishi” hikoyasida yozuvchining mahorati shunday aks etadiki, yozuvchi bir vaqtning o‘zida hikoyaga qishloq odamlarining sodda va kamtarin qiyofasini, ayrim ziyoli qatlarning illatlarini, jamiyat hayotining ijtimoiy holatini bola, oy va oyning gardishi, oq qo‘y ramzlari misolida yaqqol tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek hikoyachiligi uzoq tarixga egaligi, o‘tgan davrlar mobaynida ko‘plab o‘zgarishlarga uchraganligini, mustaqillikdan so‘ng yanada yangi mavzular, obrazlar bilan boyiganligini kuzatish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazariyasiga oid) 3tomlik. T.1. -Toshkent: Fan, 1991. B.68.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018. B.376.
3. Ahmad A’zam. Oyning gardishi. www.ziyouz.com
4. Ahmad A’zam. Oyning gardishi. www.ziyouz.com